



BADIIY MATNLARDA SARLAVHA TARJIMASIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

(Pirimqulov Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarining
yapon tiliga qilingan tarjimasida)

Saidov Umidbek Shavkat o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti Yaponshunoslik fakulteti,
yapon filologiya kafedrasida stajor –
o'qituvchisi, tarjimashunoslik kafedrasida
tayanch doktoranti +99890788 – 45 – 47,
E-mail: sasisuseso@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola tarjimaning nazariy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda badiiy asarlarda uchraydigan eng nozik jihatlardan biri bo'lgan sarlavhalar tarjimasida fikr yuritiladi. Sarlavha tarjimasiga oid boshqa tarjimashunos olimlarning fikriga urg'u berib o'tiladi. Tadqiqot ob'ekti sifatida o'zbek yozuvchisi Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” yohud “Bobur” romanidagi bo'lim sarlavhalarining yaponcha tarjimasida tanlangan bo'lib, asl va tarjima matnlari qiyosiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada tarixiy asarlar tarjimasiga xos bo'lgan boshqa masalalar haqida ham atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: sarlavha, yaponcha tarjima, arosat, taqdir taqozosi, Temuriylar saltanati, 戦国時代 [sengo'ku jiday].

Abstract: This scientific article is devoted to the theoretical issues of translation, specifically, the translation of titles which is one of the most delicate aspects found in literature. Emphasis is placed on the opinion of scholars regarding the translation of the titles. The Japanese translation of the chapter titles in the novel "Starry Nights" or "Babur" by the Uzbek writer Pirimkul Kadirov was selected as the object of research, and the original and translated texts are analyzed comparatively. The article also discusses other issues specific to the translation of historical novels.

Key words: title, Japanese translation, arosat, destiny, Timurid Empire, 戦国時代 [sengoku jiday].

2022 – yilning iyun oyida yapon adibasi 山口・久子 [Yamaguchi Hisako] qalamiga mansub Pirimqulov Qodirovning “Bobur” yohud “Yulduzli tunlari” asarining o'zbek tilidan yapon tiliga tarjimasida dunyo yuzini ko'rdi. Bir asarni maromiga yetkazib yozishning o'zi nihoyatda ulkan mashaqqat. O'sha asarni esa, asli makoni, tili, tarixi, madaniyati paradigmasidan boshqa bir til, tarix, madaniyat paradigmasiga ko'chirib, qayta jonlantirish undanda murakkab. Mana shunday mashaqqatli ishni amalga oshirgan yapon adibasiga chuqur minnatdorchilik bildirishni lozim topdim.





“Yulduzli tunlar” asari 2 qismdan iborat bo‘lib, “Arosat” va “Taqdir taqozosi” deb nomlanadi. Tadqiqotchi sifatida birinchi bo‘lib ana shu qism salavhalarining tarjimasini e‘tiborimizni o‘ziga tortdi.

Sarlavhalar tarjimasini haqida so‘z borar ekan, “Har qanday asarning nomida uning mazmuni yashiringan bo‘ladi”¹ deydi Hayrulla Hamidov. Z. Isomiddinov esa sarlavhalar tarjimasini “uzukka ko‘z qo‘yish”² ga o‘xshatadi. Ushbu aytib o‘tilgan fikrlarga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q. Aslida ham, yozuvchi yoki shoir inson uchun o‘z asariga nom qo‘yish huddi farzandga ism tanlashdek murakkab va muhim. Tarjimonning oldida turgan eng katta muammolardan biri esa, yozuvchi sarlavhaga bergan nomdagi ruhiyatni o‘zga madaniyat doirasida qayta yaratishdir. Z. Isomiddinov sarlavhalar tarjimasini haqida so‘z yuritib, rus kinofilmi “Служебный роман” (so‘zma so‘z: “Xizmatdagi sevgi”) filmini o‘zbek tiliga “Ishdagi ishq” deb qilingan tarjimasiga yuksab baho bergan³. H. Rahimov Bruno Apitsning “Nackt unter Wölfen” (so‘zma so‘z tarjimada: “Bo‘rilar orasida yalong‘och”) asarini Y. Egamova “Qashqirlar changalida” deb o‘g‘irgani, nemis yozuvchisi nazarda tutgan ruhiyatni saqlab qolgan holda qilingan tarjimaga na‘muna bo‘la olishi haqida yozadi⁴. Yoki “Meine Seele ist eine Frau” (nemischadan so‘zma - so‘z tarjimada: “Mening qalbim ayol”) nomli kitob sarlavhasini Y.Parda “Jonon mening jonimda” deb tarjima qilgani ham sarlavhaning tarjimasini naqadar muhim ekanligiga va unga alohida yondashuv va ijodkorlik kerakligiga yana bir misol bo‘la oladi. Ammo, sarlavhalar tarjimasini, hamma vaqt ham, tarjima til madaniyatiga hamohang bo‘la olmasligi mumkin. Bu borada H. Hamidov shunday fikr bildiradi: “O‘. Hoshimovning “Dunyoning ishlari” romani turk tiliga so‘zma so‘z “Dünyanın İşleri” deb berilgan. Ushbu nom turk kitobxoniga tushunarli bo‘lsa–da, asarga nom bo‘lgan iboraning frazeologik ma‘nosidan kelib chiqilsa, “Bu dunyanın işleri böyledir” ma‘nosi yuzaga chiqadi. Shunga qaramay, asarning “mag‘zini chaqqan” kitobxonda sarlavha shubha uyg‘otmaydi, u gap nimada ekanini fahmlaydi. “Dunyoning ishlari” asari 33 novelladan tashkil topgan. Ayrim novella nomlarining turkcha tarjimada qanday berilganiga e‘tibor qaratsak. Masalan, “Tush”

¹ Hamidov H. “Badiiy asar nomlari tarjimasiga doir” || O‘zbek tili va adabiyoti – 2021 (ilmiy maqolalar jurnali). – Toshkent, 2021, 45 – bet.

² Isomiddinov Z. “Oliymaqom san‘atning olijanob mardumlari” || O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi – 2020. – Toshkent: TDSHU. – 2020, 22 – bet.

³ O‘sha maqola.

⁴ Rahimov H. Erkköing – o‘rmon shohi emasmi? Yohud sarlavha tarjimalari muammolari || O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi – 2019 (ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent, 2019, 35 – bet





novellasi turkchaga “Düş” deb berilgan. “Düş” turkchada “Rüya” so‘zining sinonimi bo‘lib, jonli nutqda “rüya” so‘zi faolroq qo‘llaniladi. Uslub nuqtai nazaridan ham “Düş” emas “Rüya” deb nomlash maqsadga muvofiq edi”⁵.

Darhaqiqat, tarjima ishida sarlavhani to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish holati maqul qarordek ko‘rinishi tabiiy, qachonki bir ma‘noli sodda tarjima so‘z bo‘lsa. Ammo, bizning fikrimizcha, sarlavha murakkab tarixiy, siyosiy, diniy, ijtimoiy tushunchalarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lsa, bunday holatda, so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasida tarjima tilida o‘sha murakkab jarayonlarni aks ettirmagan bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘ladi. “Bobur” asarining Yamaguchi Hisako tarjimasida 1 – qism “Arosat” -「迷走」[meiso:] deb nomlangan. Ushbu so‘zga yapon tili izohli lug‘atida bunday izoh berilgan: 定まった道節を通らないで、不規則に進むこと⁶ “Belgilangan aniq yo‘ldan o‘tmay, aniq bir asossiz harakatlanish” (so‘zma – so‘z tarjima). Bir qarashda tarjima ajoyib bajarilgan, so‘z tog‘ri tanlangandek tuyulishi mumkin. Aslida ham shundaymikan?

Avval “Arosat” so‘zining izohiga to‘xtalib o‘tsak. A. Madvaliyevning tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” quyidagicha izohlar berilgan;

1. Arosat – [arabchadan: maydonlar, hovlilar] 1 din. Islom dinida aytilishicha, qiyomat qoyim bo‘lganda, jamiki odamzod tirilib to‘planadigan qo‘rqinchili dasht, qiyomat maydoni.
2. *ko‘chma*. Shovqin – suron, ola – to‘polon, qirg‘in barot.
3. Arosatda qolmoq. Na u yoqli van a bu yoqli bo‘lmay, aro yo‘lda qolmoq.⁷

Izohdan xulosa, asarining birichi qismiga berilgan sarlavhani biz 2 xil ma‘noda tushinishimiz mumkin, 1 – sayoz ma‘noda, 2 – chuqur ma‘noda. Sayoz ma‘noda degani – bir shaxsni aniq bir maqsadsiz tentiraklab yurishi bo‘lsa, chuqur ma‘noda esa islom diniy ta‘limoti orqali yondashiladi. Ushbu maqola muallifining nazarida, Pirmiqul Qodirov tanlagan sarlavhaga aynan chuqur ma‘no bilan yondashish zarur. Buni asoslab berish uchun “Arosat” so‘zini chuqur ma‘noda tahlil qilib chiqsak. “Arosat” so‘zi Islom dini ta‘limoti orqali bizga ma‘lum bo‘lib, “oxirzamon”, “savol – javob kuni”, “qiyomat – qoyim” degan tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Yer yuzida yashab

⁵ H. Hamidov. Ko‘rsatilgan maqola, 47 – bet.

⁶ 林・四郎 野元・菊雄 南・不二男、『新国語辞典』第五版：発行所 三省堂、2000.

⁷ A. Madvaliyev. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent – 2020, 44 – bet





o'tgan jamiyki insonlar hayoti davomida qilgan amallarining savol – javobi uchun qayta tirilishadi va bir maydonda jam bo'lishadi. Va islom ta'limotiga ko'ra, kim do'zahga kim jannatga kirishi aniqlanadi ana o'sha maydonda. Ana shu vaqtda va ana shu damda inson hayoti no'malumlik, qo'rqinch, havotir, ishonchsizlik, talvasa bir gap bilan aytganda daxshat holatida bo'ladi. O'zbek adiblarimiz, yuksak tafakkur va bilim egalari sifatida, islom ta'limotidagi “arosat” tushunchasi bilan yaqindan tanish bo'lganliklari sabab, shu tushunchadan qiyoslash maqsadida, butun millat hayotida uchraydigan tahlikali, chuqur ruhiy bosim holatlarni, alg'ov – dalg'ov zamonlarni ifodalash uchun foydalanib kelishgan. Misol uchun:

1. *“Mahmudxonga bo'lib turur qiyomat, alg'ov – dalg'ov Oqtosh shahri arosat”*.⁸
2. *“Tovushqon tuyoqli, maral bellidir, Arosat kunida ajab hollidir”*.⁹

Pirimqul Qodirov ham ana shunday yuksak tafakkur egasi sifatida “Arosat” so'zidan Temuriylar saltanatining oxirgi davrlaridagi ijtimoiy, siyosiy vaziyatni ana shu qayta tirilishdagi “Arosat” maydoniga qiyoslagan. Buni asar qahramonlaridan biri Tohirning otasining mulla Fazliddin bilan bo'lgan suhbatidan bilib olsak bo'ladi. *“Tohirning kekxa otasi qo'rqib, yoqasini ushladi: - Yo tavba! Bu yoqda Samarqand qo'shini... Uch tomonimizdan yog'iy bostirib kelyaptimi, a? Bu ne ko'rgulik, mulla Fazliddin? ... (qisqartma) – Ha, rost. ... (qisqartma) – Shundan bilingki, og'a iniga, qaynota kuyoviga qarshi qilich ko'tarib chiqmishdirlar! – Yo poka parvardigor! Oxir zamon deganlari shumikan, mulla Fazliddin?”*¹⁰

Yuqorida keltirilgan qisqa suhbatdan ko'rishimiz mumkinki, “Arosat” nomi ayni islom ta'limotidagi tushunchaga bog'langan nom. Ko'rib chiqilayotgan asar sarlavhasida Temuriylar saltanati oxirlab borayotgan davrlar u yerda yashovchi odamlar uchun juda og'ir, tahlikali va daxshatli bo'lgani nazarda tutilgan. Bunga yana bir isbot sifatida tarixshunos olimining Temuriylar saltanatining so'ngi davrlari haqida aytgan fikrini ham keltirib o'tamiz.

Yapon tilidagi tarjiması 迷走 [meisou] deb berilgan. Bu so'zning diniy ta'limotga hech qanday bog'liqligi yo'q, ammo, badiiyligi bor. Bu ko'proq, hayotda aniq bir maqsadsiz, “tentirab yurish” yoki “hayotda o'z o'rnini topa olmaslik” degan

⁸ Madvaliyev A., Abdiyev H. “O'zbek tili izohli lug'ati”: - T., 2006. 118 – bet

⁹ Madvaliyev A., Abdiyev H. “O'zbek tili izohli lug'ati”: - T., 2006. 118 – bet

¹⁰ Qodirov P., Yulduzli tunlar \ Navro'z nashiryoti : – Toshkent. 2019, 19 – bet.





tushuncha bilan bog'liq so'z bo'lib, 迷走 [meiso:] so'zida “arosat” so'zidek ruhiy tushkunlik, qo'rquv, talvasa kabi hissiyotlar ifodalanmagan. Ushbu maqola muallifining fikricha, yaponcha tarjimada “Sengoku jiday” (戦国時代) yoki “Rango'ku” (乱国) degan atamalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. “Sengo'ku jiday” (戦国時代) – 1467 – 1615 yillar oralig'ida butun Yaponiya oroli hududida hokimyat uchun kechgan, ayovsiz, feodallar o'rtasidagi urushlar nazarda tutiladi. Ayni shu jihatidan Amir Temurning vafotidan so'ng Temuriylar saltanatida 1405 – 1501 yilgacha kechgan parokandalik, ichki nizolar va hokimyat uchun kurash davriga qiyoslasak bo'ladi. Eng asosiysi, ushbu atama yapon kitobxoniga yaqindan tanish bo'lib, sarlavha orqali nima nazarda tutilganini aniq tushuna oladi.

“Rango'ku” (乱国) – parokandalik mamlakati degan ma'moni berib, Amir Temurning vafotidan so'ng, butun millatning boshiga tushgan sinovlarni ifodalashda ayni muddao bo'lgan bo'lar edi. “Bobur” asarinig ikkinchi qismi “Taqdir taqozosi” degan go'zal badiiy ibora bilan nomlangan. O'zbek tili izohli lug'atida “Taqdir” so'ziga: “Go'yo oldindan belgilab qo'yilgan, peshanaga yozilgan ko'rgulik: yozmish, qismat” deb izoh berilgan. “Taqozo” so'ziga esa “Biror holatdan, vaziyatdan kelib chiqadigan talab”¹¹ degan izohni ko'rish mumkin. Bundan xulosa shuki, “Taqdir taqozosi” degan sarlavhada qismatni tan olish, peshanaga yozilganidan qochib qutila olmaslik, Olloh irodasidagi ishlarga bo'y sunish kabi, diniy ta'limot tushunchalari yotibdi. Yapon tilidagi tarjimada esa 2 – qism sarlavhasi: 天の響き [tenno' hibiki] deb tarjima qilingan. Bu jumla o'zbek tilida “ko'kdan sado” degan iboraga to'g'ri keladi. Yapon tilida 「天の響き」 [tenno' hibiki] degan ibora mavjud emasligi sabab, yovuzvchi nazarda tutgan fikrni yapon kitobxoniga yetkazib bera olmaydi.

Shunday bo'lsada, tarjima qilinganida, qanday nom eng maquli bo'lgan bo'lar edi? Maqola muallifining fikricha 「神の意志」 [kami no' ishi] “xudoning irodasi” deb nomlansa yapon kitobxoniga gap aynan nima haqida ketayotgani ravshan bo'lar edi.

¹¹ Mag'rufova Z. Толковый словарь узбекского языка // Русский язык nashiryoti – Moskva, 1981





Ijozatingiz bilan, fikrimni asoslab bersam. Yapon tilida ham “Taqdir” ma’nosini beruvchi, “神道” [shinto] diniy ta’limoti tasirida shakillangan, 「運命」[ummei] degan so‘z mavjud bo‘lib, yapon tili izohli lug‘atida bunday deyilgan: 人や世の中のなりゆきを支配する超自然的な力¹² “inson va dunyodagi hodisalarni boshqaruvchi g‘ayri – tabiiy kuch” (so‘zma – so‘z tarjima). Ana shu g‘ayri – tabiiy kuch iborasi ortida 「神」 [kami] “xudo” tushunchasi yotgan bo‘ladi. Shunda 「神の意志」 [kami no ishi] deganda “xudoning irodasi” degan mazmun yotgani yapon kitobxoniga ma’lumot bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, hurmatli adiba Yamaguchi Hisako 1 – qism sarlavhasining tarjimasida asliyatdan uzoqlashmagan holda, sarlavha tagida yotgan ma’noni emas, aynan so‘zning o‘zini tarjima qilib berishga harakat qilgan. Bu esa, asl asar yozuvchisi nazarda tutgan fikr yapon tilida aks etmay qolishiga sabab bo‘lgan. 2 – qism sarlavha tarjimasida ham yapon kitobxoniga shu qismda kechadigan voqealar haqida aniq bir tushuncha bergan bo‘lar edi. Ammo, tarjimon bergan sarlavha yozuvchi nazarda tutgan fikrni ifodalab bera olmasligi sabab, yapon kitobxonida shu qismda kechadigan voqealarga nisbatan kerakli tushuncha shakillanmay qolish ehtimolini paydo qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, badiiy asarlar tarjimasida, ayniqsa ularning sarlavhalari tarjimasida voqealar silsilasi, matn zamirida yotgan asosiy g‘oya to‘laligicha hisobga olinishi kerak. Aks holda yuqorida keltirib o‘tilgan holatlar yuzaga kelaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidov H. “Badiiy asar nomlari tarjimasiga doir” \ O‘zbek tili va dabiyoti – 2021 (ilmiy maqolalar jurnali). – Toshkent, 2021
2. Isomiddinov Z. “Oliymaqom san’atning olijanob mardumlari” \ O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi – Toshkent: TDSHU, 2020
3. Rahimov H. Erko‘ng – o‘rmon shohi emasmi? Yohud sarlavha tarjimalari muammolari \ O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi – 2019 (ilmiy maqolalar to‘plami) – Toshkent, 2019
4. 林・四郎、野元・菊雄、南・不二男、「新国語辞典」第五版。発行所：三省堂、2000.

¹² 林・四郎、野元・菊雄、南・不二男、「新国語辞典」第五版。発行所 三省堂、2000.





5. A. Madvaliyev. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” \\\ O‘zbekiston nashiryoti – Toshkent, 2020
6. Madvaliyev A., Abdiyev H. “O‘zbek tili izohli lug‘ati” \\\ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashiryoti – Toshkent, 2006
7. Qodirov P. Yulduzli tunlar \\\ Navro‘z nashiryoti – Toshkent, 2019
8. 山口・久子、「バブル（上）」第一版. 発行所：有限会社後藤商会 アールズデザイン、2022.
9. 山口・久子、「バブル（下）」第一版. 発行所：有限会社後藤商会 アールズデザイン、2022.
10. Mag‘rifoza Z. Толковый словарь узбекского языка \\\ Русский язык nashiryoti – Moskva, 1981
11. www.savodxon.uz

